

**“TA’LIM JARAYONIDA DIDAKTIK MATERIALLARDAN FOYDALANISHNING NAZARIY VA METODIK JIHATLARI (BOSHLANG’ICH TA’LIM MISOLIDA)”**

**Тангрибергенова Наргиз Илхамовна**

*Ранч Технологиялар Университетининг Магистратура "Педагогика" йуналиши 2 курс талабаси*

**Annotatsiya**

Ushbu ishda boshlang'ich ta'lim jarayonida didaktik materiallardan foydalanishning nazariy va metodik jihatlari yoritilgan. Didaktik materiallarning ta'lim mazmunini o'zlashtirishga ko'maklashishi, o'quvchilarning bilish faolligi, motivatsiyasi va mustaqil fikrlashini rivojlantirishdagi roli ilmiy asoslarda tahlil qilinadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining psixofiziologik xususiyatlaridan kelib chiqib, o'quv jarayonida qo'llaniladigan didaktik vositalarning turlari, ularni qo'llash tamoyillari va samaradorlik mezonlari yoritiladi. Shuningdek, o'yinli, ko'rgazmali va raqamli didaktik materiallardan foydalanishning amaliy misollari keltiriladi. Tadqiqot natijalari didaktik materiallar ta'lim sifatini oshirishda, o'quvchilarning kompetensiyalarini shakllantirishda muhim omil ekanini ko'rsatadi.

**Kalit so'zlar**

didaktik materiallar, boshlang'ich ta'lim, metodika, ko'rgazmalilik tamoyili, o'yinli ta'lim, interfaol texnologiyalar, kompetensiyalar.

**Аннотация**

В данной работе раскрываются теоретические и методические аспекты использования дидактических материалов в процессе обучения младших школьников. Рассматривается роль дидактических средств в повышении качества образования, развитии познавательной активности, мотивации и самостоятельного мышления учащихся. Проанализированы классификация и особенности применения демонстрационных, игровых и цифровых дидактических материалов с учётом психофизиологических характеристик детей младшего школьного возраста. Представлены примеры эффективного использования дидактических материалов на уроках в начальной школе. Результаты исследования показывают, что дидактические материалы являются важным средством формирования ключевых компетенций и обеспечения успешного усвоения учебного содержания.

**Ключевые слова**

дидактические материалы, начальное образование, методика обучения, наглядность, игровые технологии, цифровые ресурсы, компетенции.

**Abstract**

This paper explores the theoretical and methodological aspects of using didactic materials in the primary education process. It highlights the importance of didactic resources in enhancing the quality of learning, developing students' cognitive activity, motivation, and independent thinking skills. Various types of didactic materials -visual aids, game-based resources and digital learning tools - are analyzed in accordance with the psycho-physiological characteristics of primary school children. Practical examples of effective implementation of didactic materials in the classroom are also provided. The findings indicate that didactic materials serve as a crucial means for improving educational outcomes, facilitating better understanding of the learning content, and fostering the development of key competencies among young learners.

**Keywords**

didactic materials, primary education, teaching methodology, visual aids, game-based learning, digital resources, competencies.

**Kirish:**

Bugungi kunda jamiyat taraqqiyoti bevosita ta'lim tizimining samaradorligi va sifatiga bog'liqdir. Ta'lim jarayonida o'quvchilarning bilim olishga bo'lgan qiziqishi, o'quv materiallarini puxta o'zlashtirishi hamda ijodiy va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish, avvalo, o'qitishda qo'llaniladigan vositalar va metodlarning to'g'ri tanlanishiga bog'liq. Shu boisdan ham didaktik materiallar ta'lim jarayonining ajralmas tarkibiy qismi sifatida katta ahamiyat kasb etadi.

Didaktik materiallar - bu ta'lim oluvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish, ularni bilim olishga yo'naltirish va faolligini oshirishga xizmat qiluvchi o'quv-metodik vositalar majmuasidir. Mazkur materiallar o'quv jarayonining samaradorligini oshirishga, o'quvchilarda mustaqil fikrlash, mantiqiy tahlil qilish, amaliy bilimlarni qo'llash malakalarini shakllantirishga yordam beradi. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bosqichida bolalarning yosh xususiyatlari va bilish faoliyatini rivojlantirish uchun didaktik materiallardan oqilona foydalanish nihoyatda muhimdir.

Boshlang'ich maktab o'quvchilari uchun ta'lim jarayoni ko'rgazmalilik, qiziqarli faoliyat, harakatlar bilan uyg'un holda olib borilishi talab etiladi. Chunki bu yoshdagi bolalarda abstrakt tafakkur to'liq shakllanmagan bo'lib, ular ko'proq amaliy, tasviriy faoliyat orqali bilimni o'zlashtiradilar. Shu nuqtayi nazardan, turli ko'rgazmali vositalar, kartochkalar, didaktik o'yinlar, multimediya resurslari, modellar va jadvallarning qo'llanilishi dars samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar doirasida ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, boshlang'ich ta'lim sifatini yanada yaxshilash bo'yicha qator dasturlar hayotga tadbqiq etilmoqda. Xususan, "Ilk qadam"



davlat o'quv dasturi, yangilangan o'quv rejalari va zamonaviy metodik yondashuvlar didaktik materiallardan foydalanishni tizimli yo'lga qo'yishni taqozo etadi. O'qituvchilarning pedagogik mahorati, innovatsion vositalardan foydalanish ko'nikmasi ham o'quv jarayonining muvaffaqiyatli tashkil etilishida muhim omil hisoblanadi.

Didaktik materiallardan samarali foydalanish o'quvchilarda nafaqat bilim va ko'nikmalarni shakllantiradi, balki ularda ijtimoiy-madaniy kompetensiyalarni, kommunikativ malakalarni, shaxsiy faollik va tashabbuskorlikni rivojlantiradi. Zero, boshlang'ich ta'lim - o'quvchilar shaxsini shakllantirishda poydevor bosqichi bo'lib, mazkur bosqichda berilgan har bir bilim va tarbiya kelgusidagi muvaffaqiyatlar uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Shu bilan birga, didaktik materiallarni yaratish va ulardan foydalanishning ilmiy asoslariga tayangan holda ish yuritish zarur. Ya'ni, ularning didaktik talablar asosida ishlab chiqilishi, o'quv dasturi bilan uyg'unligi, predmet mazmunini to'liq ochib berishga xizmat qilishi muhim. Har bir o'qituvchi didaktik vositalardan maqsadga muvofiq, oddiydan murakkabgacha tamoyili asosida hamda o'quvchilarning individual psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda foydalanishi talab etiladi.

#### **ADABIYOTLAR SHARXI**

Ta'lim jarayonida didaktik materiallardan foydalanish bo'yicha olib borilgan ilmiy izlanishlar va metodik ishlanmalar mazkur yo'nalishning nazariy asosi hamda amaliy yo'nalishlarini belgilashga xizmat qilmoqda. Adabiyotlarning aksariyati didaktik vositalarning ta'lim samaradorligini oshirishdagi o'rnini alohida ta'kidlaydi.

XX asr boshlaridan boshlab didaktika nazariyasi J. Komenskiy, A. Disterveg, K. Ushinskiy kabi klassik pedagoglar asarlarida ko'rgazmalilik tamoyilining muhimligi bilan izohlangan. Ularning fikricha, o'quvchilar bilimi ko'proq sezgi organlari orqali mustahkamlanadi, shuning uchun ta'limda turli ko'rgazmali materiallardan foydalanish zarur.

Zamonaviy pedagogikada Yu.K. Babanskiy, M.I. Makhmutov, P.I. Pidkasistiy kabi olimlar didaktik vositalarning ta'lim mazmunini ochib berish hamda metodik yondashuvlarni takomillashtirishdagi rolini ilmiy asoslab berganlar. Ular didaktik materiallarni darsning har bir bosqichida maqsadga muvofiq qo'llash zarurligini ta'kidlaydilar.

Boshlang'ich ta'lim psixologiyasi va metodikasi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarda (V. Davыдов, L. Vygotskiy, S. Rubinshteyn) o'quvchilarning yosh xususiyatlariga mos vositalardan foydalanish ularning bilish jarayonini jadallashtirishga katta yordam berishi qayd etilgan. Ayniqsa, o'yin texnologiyalari bilan uyg'unlashgan didaktik materiallar kichik maktab yoshidagi bolalarda motivatsiya va qiziqishni kuchaytiradi.

O'zbekistonlik pedagog olimlar R. Ishmuhammedov, N. Hasanboyeva, O. Tolipova, B. Farxodovlarning ilmiy asarlarida didaktik vositalarning milliy ta'lim tizimidagi o'рни

va ulardan samarali foydalanish metodlari yoritilgan. Ular yangi dastur va standartlar asosida ishlab chiqilgan didaktik materiallar boshlang'ich ta'lim sifatini oshirishda muhim omil ekanini ta'kidlaydilar.

So'nggi yillarda raqamli ta'lim vositalarining keng tatbiq etilishi AKT asosida yaratilgan didaktik resurslarning dolzarbligini kuchaytirdi. Elektron darsliklar, interaktiv platformalar, multimedia ko'rgazmalar va virtual kutubxonalar o'quvchilarning bilim olishga bo'lgan ehtiyojini kengaytirmoqda. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, an'anaviy vositalar bilan uyg'un holda AKTdan foydalanish dars samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Shuningdek, adabiyotlarning tahlili didaktik materiallarning quyidagi yo'nalishlarda o'rganilganini ko'rsatadi:

- psixologik-pedagogik asoslari;
- ko'rgazmalilik tamoyili doirasida qo'llanilishi;
- fanlararo integratsiyadagi o'rni;
- o'yin texnologiyalari bilan bog'liqligi;
- raqamli ta'lim tizimidagi tatbiqi.

Adabiyotlar sharxi shuni ko'rsatadiki, ilmiy manbalarda didaktik materiallardan foydalanishning nazariy asosi yaxshi ishlab chiqilgan bo'lsa-da, boshlang'ich ta'lim misolida yangilangan o'quv dasturlari asosida amaliyotga tatbiq etish bo'yicha tadqiqotlar yanada kengaytirishni talab etadi.

### **METODOLOGIYA**

Ushbu tadqiqotda boshlang'ich ta'lim jarayonida didaktik materiallardan foydalanishning nazariy asoslari va metodik yondashuvlarini o'rganish maqsadida ilmiy-amaliy metodlar majmuasi qo'llanildi. Tadqiqot boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan olib borilgan tajribalar, kuzatishlar hamda pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish orqali amalga oshirildi.

Tadqiqot yondashuvlari

Tadqiqot quyidagi metodologik yondashuvlarga asoslandi:

- Tizimli yondashuv** – didaktik materiallarni ta'lim jarayonining tarkibiy qismi sifatida kompleks o'rganish.
- Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim yondashuvi** – o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini inobatga olish.
- Faollashtiruvchi-interaktiv yondashuv** – darsda o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlash.
- Kompetensiyaviy yondashuv** – o'quvchilarda tayanch va predmet kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan.

**Tadqiqot metodlari**

Tadqiqot jarayonida quyidagi metodlardan foydalanildi:



Nazariy metodlar:ilmiy adabiyotlar tahlili didaktik konsepsiyalarni solishtirish pedagogik tajribalarni umumlashtirish.Bu metodlar didaktik materiallarning mazmuniy asosini aniqlashga yordam berdi.

2.Empirik metodlar:kuzatish suhbat va anketa amaliy topshiriqlar asosida tajriba-sinov ishlari.Boshlang'ich sinflarda 2 oylik kuzatuv ishlari olib borildi.

3.Diagnostik metodlar:bilim o'zlashtirishini baholash motivatsiya darajasini o'lchash o'quvchilarning faollik ko'rsatkichlarini aniqlash Natijalarda an'anaviy dars va didaktik materiallardan foydalangan darslar samaradorligi taqqoslandi.

4.Statistik metodlar:natijalarni foiz va ko'rsatkichlar orqali qayta ishlash jadval va grafiklar asosida tahlil qilish.Bu usullar tajriba natijalarining ishonchliligini ta'minladi.

### **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Ta'lim jarayonida didaktik materiallardan foydalanishning nazariy va metodik jihatlarini yuzasidan olib borilgan ilmiy-amaliy tahlillar shuni ko'rsatadiki, mazkur vositalar boshlang'ich ta'lim sifatini oshirishda muhim omil sifatida namoyon bo'ladi. Didaktik vositalar o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish, ularning mustaqil fikrlashi, kuzatuvchanligi va tafakkurini rivojlantirishda o'ziga xos o'rin egallaydi. Ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun ularning yosh psixologiyasiga mos bo'lgan vizual va amaliy tabiatdagi materiallardan foydalanish jarayon samaradorligini oshiradi.

1. O'quvchilarning bilishga qiziqishi va motivatsiyasi oshadi.Dars jarayoniga rangli kartochkalar, o'yinli topshiriqlar, ko'rgazmali didaktik resurslar jalb etilganda o'quvchilarning fanlarga bo'lgan qiziqishi ortadi. Interfaol faoliyatda ishtirok etish ularda ijobiy o'quv motivatsiyasini shakllantiradi. Bu esa dars davomida diqqatning barqaror bo'lishiga, mavzularni to'liq idrok etishga zamin yaratadi.

2. Bilimlarni mustahkamlash va xotirani rivojlantirishga yordam beradi.Ko'rish, eshitish va harakatlanish orqali bir vaqtda o'zlashtirish bolalarning axborotni tezroq qabul qilishiga olib keladi. Ko'p kanalli idrok jarayoni o'quv materiallarining uzoq muddatli xotirada mustahkam joylashuviga xizmat qiladi. Didaktik kartochkalar, grafiklar, modellar yordamida mavzularni yodda saqlash samaradorligi oshadi.

3. Mustaqil ta'lim ko'nikmalari shakllanadi.Didaktik materiallardan foydalanib tashkil etilgan mashg'ulotlar o'quvchilarning ijodkorlik va tashabbusini rivojlantiradi. Ular topshiriqlarni o'zlari bajarishga intiladilar, xatolarini tahlil qiladilar va to'g'rilash yo'llarini izlaydilar. Bu jarayon mustaqil bilim olishga bo'lgan ehtiyojni kuchaytiradi.

4. Muloqot va hamkorlik ko'nikmalari rivojlanadi.Juftlikda va guruh bo'lib ishlashga asoslangan didaktik o'yinlar o'quvchilarni jamoa bilan ishlashga o'rgatadi. Ular bir-birini tinglash, fikr bildirish va qaror qabul qilish jarayonlarida faol bo'ladilar.

5. Fanlararo integratsiya ta'minlanadi.Tabiatshunoslikka oid obyektlarni matematika darsida qo'llash yoki ona tili darsida grafik-tasviriy materiallardan

foydalanish o'quvchilarda olamni yaxlit idrok qilishga imkon beradi. Bu esa kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

### XULOSA

Boshlang'ich ta'lim jarayonida didaktik materiallardan samarali foydalanish o'quvchilarning bilimni o'zlashtirish darajasi, kognitiv faoliyatining rivojlanishi va darsga bo'lgan qiziqishining oshishiga bevosita ta'sir qiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, didaktik vositalar quyidagi muhim natijalarga erishishga yordam beradi:

- **Bilish faoliyatini faollashtiradi** - o'quvchilar mustaqil fikrlash va topqirlikka o'rgatiladi;

- **Aqliy jarayonlarni rivojlantiradi** - taqqoslash, umumlashtirish, tahlil va sintez qilish qobiliyatlari mustahkamlanadi;

- **O'yin va faol metodlar asosida bilim berish imkonini yaratadi** - bu esa motivatsiyani oshiradi;

- **Individual yondashuvni ta'minlaydi** - har bir o'quvchining qobiliyati va tezligiga moslashuvchanlik yuzaga keladi;

- **Pedagogik jarayonni modernizatsiya qiladi** - AKT asosidagi didaktik materiallar interfaol ta'limni rivojlantiradi.

Shuningdek, ta'lim vositalarining tizimli va metodik jihatdan to'g'ri qo'llanishi o'qituvchiga darsni samarali boshqarish, o'quvchilar faoliyatini baholash va nazorat qilish imkonini beradi. Bularning barchasi boshlang'ich ta'limda sifat ko'rsatkichlarini oshirishga xizmat qiladi.

Ushbu tadqiqot asosida quyidagilar tavsiya etiladi:

1. Ta'lim jarayonida interfaol didaktik materiallardan keng foydalanish;
2. O'qituvchilar uchun metodik qo'llanmalar va malaka oshirish dasturlarini takomillashtirish;
3. Didaktik vositalarni yosh xususiyatlari va ta'lim mazmuniga mos holda ishlab chiqish;
4. Raqamli didaktik resurslar bazasini kengaytirish va amaliyotga joriy etish.

Umuman olganda, boshlang'ich ta'limda didaktik materiallardan foydalanish - ta'lim samaradorligini oshirishning muhim omili hisoblanadi.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Zunnunov, A. Z. **Didaktika asoslari**. – Toshkent: O'qituvchi, 2021. – 245 b.
2. Xasanov, M., Karimova, S. **Boshlang'ich ta'lim metodikasi**. – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2020. – 312 b.
3. Джуринский, А. Н. **Педагогика развития: современные подходы**. – Москва: Academia, 2019. – 198 с.



4. Полат, Е. С., Бухаркина, М. Ю. **Новые педагогические и информационные технологии.** – Москва: Академия, 2022. – 224 с.
5. G‘ulomov, S. **Ta’limda axborot texnologiyalari.** – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018. – 180 b.
6. Mavlonova, R., To‘rayeva, O. **Boshlang‘ich ta’limni tashkil etish metodikasi.** – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2022. – 256 b.
7. Smirnova, Z. **Didakticheskie материалы в начальной школе.** – Санкт-Петербург: Питер, 2020. – 160 с.
8. O‘zbekiston Respublikasi Ta’lim to‘g‘risidagi Qonuni (2020-yil 23-sentabr). – Toshkent.